

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN ERKAKLAR VA AYOLLAR SARTAROSHI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Erkaklar va ayollar sartaroshi fanidan talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Erkaklar va ayollar sartaroshi

- 1.Sartaroshlik ishlarini o‘rganish haqida umumiy ma’lumotlar;
2. Sartaroshlik asboblarini vazifalari va ulardan foydalanish;
3. Sochlarga kimyoviy ishlov berish usullarini bajarish.
4. Soch tuzilishi va soch o‘sish yo‘nalishlarini to‘g‘ri aniqlab soch uslublarini amalda bajarish texnikalari bilan ishlash tamoyillarini tushunish;
5. Sochga rang berish va ranglardan to‘g‘ri foydalanish;
6. Erkaklar soch soqollariga shakl berishni tanlash.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Sartaroshlik	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Sartaroshlik ishlarini o'rganish haqida umumiy ma'lumotlar.	Sartaroshlik ishlarini bajarishda sartaroshlik ishlari bilan tanishtirish asboblari vazifalarini ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llash haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.	7,5 %	3 ta
2	Sartaroshlik asboblari vazifalari va ulardan foydalanish.	Elektr asboblardan foydalanish usullarini o'rgatish asboblari vazifalarini tahlil qilib foydalanish jarayonida texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilish asboblardan to'g'ri foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.	7,5 %	3 ta
3	Sochlarga kimyoviy ishlov berish usullarini bajarish	Sochlarni kimyoviy ishlovga tayyorlash chora tadbirlarini amalga oshirish himoyalash usullarini farqlash hamda ularni amaliy va hayotiy vaziyatlarda ishlatish. Kimyoviy sochlarga ishlov berish jarayonini ketma ketligini to'g'ri tashkil qilish to'g'risida umumiy bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi lozim.	10 %	4 ta
4	Erkaklar va ayollar sartaroshlida soch kesish turlari.	Soch tuzilishi va soch o'sish yo'nalishlarini to'g'ri aniqlab soch uslublarini amalda bajarish texnikalari bilan ishlash, tamoyillarini tushunish haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.	20 %	8 ta
5	Sochga rang berish va ranglardan to'g'ri foydalanish.	Sochga bo'yoqlari bilan tanishtiradi ulardan foydalanish usullarini amalda bajaradi ranglarda soch bo'yoqlari bilan ishlash ketma ketligi haqida amali tushunchaga ega bo'lishi asosiy ranglar bilan ishlash haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.	30 %	12 ta
6	Erkaklar soch soqollariga shakl berishni tanlash.	Erkaklar sartaroshligida mijoz yuz shaklini o'rganish va yuzga mos soch soqol uslubini tanlash. Shakl berish jarayonida asboblardan to'g'ri foydalanish har bir asbob vazifasini to'g'ri tahlil qilgan holda taqsimlash shakl berish jarayonida uslub texnikasi ketma - ketligini to'g'ri va aniq bajarish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.	25 %	10 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	40 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	32,5 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	27,5 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Sartaroshlik Xannikov A.A Toshkent 2003
2. Erkaklar va ayollar sartaroshi Rajabova Yulduz 2023
3. Sartaroshlik Xannikov A.A Toshkent 2003
4. Sartaroshlik ishlari materiallari asbob uskunalari Rajabova Y. Toshkent 2023yil
5. Rang tasvir kompozitsion Abdurahmonova Toshkent 1995 yil
6. Sartaroshlik ishlari materiyallari va asbob uskunalari V.A.Kondramova N.N Rahimova Toshkent ilm ziyosi 2017 yil
7. Kasb etikasi va psixologiyasi M.Muzafarov Toshkent 2023
8. Plastik anatomiya va fiyalogiya Z.G‘. Saidmurodov Toshkent 2025 yil